

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI AXBOROT TEXNOLOGIYALARI VA
KOMMUNIKASIYALARINI RIVOJLANTIRISH VAZIRLIGI**

**MUHAMMAD AL-XOPAZMIY NOMIDAGI TOSHKENT AXBOROT
TEXNOLOGIYALARI UNIVERSITETI
NUKUS FILIALI**

“Himoyaga ruxsat etildi”
“Dasturiy injiniringi”
kafedrası mudiri _____
prof. N.Uteuliev
« ____ » _____ 2019y

**Qoraqalpog’iston Respublikasi turizmini rivojlantirish bo’yicha
interaktiv xizmatlar taqdim etuvchi axborot tizimini yaratish
mavzusida**

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

Bitiruvchi

Imzo

D.Bozorboeva

Rahbar

Imzo

Yu.Qutlimuratov

Taqrizchi

Imzo

Nukus 2019

MUNDARIJA

KIRISH

I. BOB. O'ZBEKISTONDA TURIZMNI RIVOJLANTIRISH TO'G'RISIDAGI ME'YORIY-HUQUQIY HUJJATLAR

1.1. O'zbekiston Respublikasida turizm sohasi bo'yicha qabul qilingan qarorlar, qonunlar, farmonlar va farmoyishlar

1.2. O'zbekiston Respublikasida turizm sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar

II. BOB. HORIIY VA YURTIMIZ TURIZM SOHASIDAGI INTERAKTIV AXBOROT TIZIMLARI TAHLILI

2.1. Turizm sohasidagi interaktiv axborot tizimlari bilan tanishish

2.2. Booking.com axborot tizimini o'rganish

III. BOB. QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASI TURIZMINI RIVOJLANTIRISH BO'YICHA INTERAKTIV XIZMATLAR TAQDIM ETUVCHI KARAKALPAK.UZ AXBOROT TIZIMINI YARATISH

3.1. Interaktiv xizmatlar taqdim etuvchi sayt yaratish uchun zarur dasturiy vositalar

3.2. Karakalpak.uz interaktiv veb saytni ishlab chiqish va internetga joylashtirish

XULOSA

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

ILOVALAR

Kirish

Turizm infratuzilmasini zamonaviy kompyuter xizmatidagi tasavvur etish qiyin. Tezkor axborot va so'zlashuv, yangiliklardan xabardorlik turizmning yana bir jihatidir. Hozirgi turist internet, faks va boshqa zamonaviy texnika vositalaridan foydalanishi turizm infratuzilmasini qay darajada ekanligidan yana bir nishonadir. Zamonaviy elektron vositalari, shu jumladan, turistik xizmatlar turistik markazlar haqidagi ma'lumotlar joylashgan millionlab saytlarga ega bo'lgan internet tarmoqlari nafaqat sayohat va turistik agentliklarni tanlash, xattoki, tur sayohatning chiptalari, xizmatlar uchun to'lovlarni ham oldindan tayinlab qo'yish mumkin. Turizm tashkilotchilari axborot xizmatidan keng ko'lamda foydalanadilar. Mamlakatimizning turizm infratuzilmasini takomillashtirishda har qanday xorijiy mamlakatdan qolishmaydigan imkoniyatlarga egaligi, bu borada ko'plab muvoffaqiyatlarga erishishimizni ta'minlovchi asosiy manba hisoblanadi. Ana shularni hisobga olgan holda, mamlakatimizda mustaqillikning dastlabki yillaridan to hozirga qadar zamon talablariga javob beradigan turizm infratuzilmasini tarkib toptirish va rivojlantirish borasida amalga oshirib kelinayotgan islohotlar o'z ijobiy natijalarini berib kelmoqda. Mustaqil o'lkamizning jahon hamjamiyatida keng miqyosda e'tirof etilishi, dunyoning iqtisodiy rivojlangan mamlakatlari bilan o'zaro do'stona munosabatlarning yanada barqarorlashib borishi, tashrif buyurayotgan turistlar oqimining yil sayin ortib borishi, yurtimizda mavjud yangidan-yangi turizm imkoniyatlarining kashf etilayotganligi va boshqa shu kabi o'zgarishlar fikrimizning yaqqol dalili bo'la oladi. Boshqa iqtisodiy tarmoqlarda bo'lgani kabi, turizm sohasini rivojlantirishga alohida e'tibor berilmoqda. Bundan ko'zlangan asosiy maqsad mamlakatimizga tashrif buyuradigan turistlarga xizmat ko'rsatish sifatini yanada takomillashtirish va bozor talablariga to'liq javob beradigan turizm sanoatiga ega mamlakat sifatida dunyo hamjamiyati e'tiborini jalb etishdir. Bizning bu bitiruv malakaviy ishimiz ham aynan turizm sohasida interaktiv xizmatlar yaratish mavzusida.

Bu bitiruv malakaviy ishimiz uch bobni o'z ichiga olgan bo'lib, ularning har biri yana bir necha qismlarga bo'linadi. Birinchi bob O'zbekistonda turizm sohasini rivojlantirish chora tadbirlari va ularning ijrosi bo'lib bu bob ikki qismdan iborat birinchi

qismda O'zbekiston Respublikasida turizm sohasi bo'yicha qabul qilingan qarorlar, qonunlar, farmonlar va farmoyishlar bilan tanishib chiqamiz. Ya'ni turizm sohasida qabul qilinayotgan qarorlar, qonunlar, farmonlar va farmoyishlar bilan yaqindan tanishamiz. Bu borada mustaqilligimizdan buyon ko'pgina qarorlar qabul qilingan. Manashu qarorlarning bir qanchasini shu qismda o'rganib chiqamiz. Keyingi qism O'zbekiston Respublikasida amalga oshirilayotgan islohatlar mavzusida. O'zbekiston Respublikasida qabul qilinayotgan qaror va qonunlar doirasida amalga oshirilayotgan eng so'ngi yangiliklar bilan tanishib chiqamiz. Keyingi bob esa turizm sohasidagi turizm sohasidagi interaktiv axborot tizimlar taxlili. Bu bobda turli interaktiv xizmatlar bilan tanishamiz. Birinchi qismda bir necha interaktiv xizmatlarni taqdim qiluvchi axborot tizimlari bilan tanishib o'tamiz. Ularni bir biridan ustun va kamchilik jihatlarini ko'rib chiqamiz. Keyingi qism booking.com axborot tizimi bilan tanishish. Bu saytda turistlar uchun juda ko'p xizmatlar taqdim qilingan bo'lib mana shu xizmatlar bilan birma bir tanishib chiqamiz. Hamda mybooking.uz bilan ham tanishib o'tamiz. Keyingi qism biz ishlab chiqqan axborot tizini haqidagi barcha ma'lumotlar kiritilgan. Aynan shu bobda karakalpak.uz sayti ishlab chiqish texnologiyasiga to'xtalib o'tamiz. Bu qismda sayt yaratilgan texnologiya, foydalanilgan tillar, text redaktorlar va boshqa barcha ma'lumotlarga to'xtalib o'tamiz. Mana shu uch bob orqali biz bitiruv malakaviy ishimiz mavzusini yoritib beramiz.

I. BOB. O'ZBEKISTONDA TURIZMNI RIVOJLANTIRISH CHORA-TADBIRLARI VA ULARNING IJROSI

1.1. O'zbekiston Respublikasida turizm sohasi bo'yicha qabul qilingan qarorlar, qonunlar, farmonlar va farmoyishlar

O'zbekiston Respublikasi hozirgi rivojlanish yo'lidan borar ekan barcha jabhada o'zini rivojlantirish chora tadbirlarini ishlab chiqmoqda. Davlatimiz prezidenti takidlaganlaridek «Qonun qonun uchun emas baliki qonun inson uchun xizmat qilishi kerak» shuning uchun davlatimizda barcha qonun va islohotlar inson manfaatlari uchun xizmat qiladi. Qonunlar, qarorlar, farmonlar va farmoyishlar davlat ehtiyojlaridan, zaruratlaridan kelib chiqqan holda qabul qilinadi. Shu jumladan turizm sohasida ham ko'plab qarorlar qabul qilingan bo'lib quyida ular bilan tanishib chiqamiz.

Davlatimiz rahbarining 2016 yil 2 dekabrda «O'zbekiston Respublikasining turizm sohasini jadal rivojlantirishni ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida»gi farmoniga muvofiq, sayyohlik mamlakatimiz iqtisodiyotining strategik tarmog'i sifatida belgilandi. Prezidentning 2017 yil 16 avgustdagi qarori bilan 2018-2019 yillarda turizm sohasini rivojlantirish bo'yicha chora-tadbirlar dasturi tasdiqlandi.

Joriy yil fevral oyining o'zida Prezidentning shu sohaga doir 4 ta muhim hujjati qabul qilingani davlatimizning turizm rivojiga yuksak e'tiboridan dalolat bo'ldi. Ushbu hujjatlar bilan sohada yig'ilib qolgan muammolarni hal etish, turizm salohiyatini oshirish bo'yicha ustuvor vazifalar belgilandi, ichki turizmni yanada rivojlantirishga ko'plab imtiyozlar, yengilliklar berildi. Shavkat Mirziyoyev turizmning iqtisodiyotdagi o'rnini alohida ta'kidlab, mamlakatimizda bu boradagi ahvol va sohani rivojlantirish bo'yicha ko'rilayotgan choralar samaradorligini birma-bir tahlil qildi. Turizmni rivojlantirish davlat qo'mitasi va uning mintaqaviy tuzilmalari shtat birliklari oshirilgani, hududlarda turizm departamentlari va boshqarmalari, hokim o'rinbosarlari lavozimlari tashkil etilgani mazkur tashkilotlarning imkoniyatlarini kengaytirdi.

Keyingi yillarda respublikamizda turizm infratuzilmasini zamon talabiga moslashtirish maqsadida ko'pgina ishlar qilinmoqda. Ayniqsa, O'zbekiston

Respublikasi Prezidentining 1995 yil 2 iyundagi «Buyuk Ipak yo'li» ni qayta tiklashda O'zbekiston Respublikasining ishtirokini avj oldirish va respublikada xalqaro turizmni rivojlantirish borasidagi chora-tadbirlar to'g'risida» gi Farmoni bu ishni yuksak darajaga ko'tarish muammolarini hal qilishda o'z o'rniga ega bo'ldi. Farmon g'oyat muhim xalqaro turizm yo'nalishi «Buyuk Ipak yo'li» ni qayta tiklash, bunga xorijiy sarmoyadorlarni keng jalb etish, shuningdek, zamonaviy turizm siyosatini vujudga keltirishga asosiy maqsadini qaratdi. Buning uchun esa quyidagi o'ta muhim va dolzarb masalalar o'z yechimini topishi lozim. Masalan, «Buyuk Ipak yo'li» dagi shaharlar - Samarqand, Buxoro, Xiva va Toshkentda xalqaro turizm bo'yicha maxsus ochiq iqtisodiy mintaqalar tashkil etish, mazkur shaharlarning aeroportlari va temir yo'l vokzallarida turistlar uchun bojxona rasm-rusumlarini xalqaro me'yorlarga mos soddalashtirilgan tartibi, shuningdek, tranzit turistlar uchun maxsus bojxona zonalari joriy qilish kuzda tutildi. Ushbu shaharlarda yangi tashkil etiladigan turistik tashkilotlar va korxonalar barpo etilgan paytdan boshlab, dastlabki foydani olgunga qadar o'tadigan davrda, lekin ro'yxatga olingan sanadan keyin uzog'i bilan uch yil mobaynida barcha turdagi soliqlardan ozod qilish imkoniyati tug'ildi. Shu maqsadda mazkur tashkilotlar va korxonalar foyda (daromad) olgan birinchi yili (daromad) solig'ining 50%, ikkinchi yili 75 %, uchinchi yildan boshlab 100 % to'lashlari belgilab qo'yilgan.

Shuningdek, xalqaro turizmni rivojlantirish bilan bog'liq bo'lgan barcha masalalarning o'z vaqtida hal etish uchun javobgarlik «O'zbekturizm» Milliy Kompaniyasi(MK), «O'zbekiston havo yo'llari», «O'zbekiston temir yo'llari» kompaniyalarining, Ichki ishlar va Tashqi ishlar vazirliklarining, chegara va bojxona xizmatlarining rahbarlari zimmasiga yuklatilgan. Mazkur farmonni amalga oshirish yuzasidan respublika Vazirlar Mahkamasi 1995 yil 3 iyunda «O'zbekiston Respublikasida xalqaro turizmning zamonaviy infratuzilmasini barpo etish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarori e'lon qilindi. Ushbu qarorda Prezident farmonini to'ldirib, yana quyidagi muhim masalalar amalga oshirilishi ta'kidlab o'tildi: tegishli tashkilotlar bilan birgalikda turistlarni avia va temir yo'l transporti orqali tashishda imtiyozlar berish tartibini ishlab chiqish, maxsus bojxona hududlarini tashkil etish, ularni zamonaviy nazorat texnikasi bilan jihozlash vazifasi yuklatildi. Qarorda turizm

tizimidagi xususiylashtirilayotgan ob'ektlardan tushgan mablag'lar «O'zbekturizm» MK bo'linmalarini qayta qurish va texnika bilan jihozlash maqsadida «O'zsayohatinvestbank»ka o'tkazish belgilab qo'yilgan.

O'zbekiston Respublikasi hududida turizm sohasida amalga oshirilayotgan ishlar negizida turizmni rivojlantirish masalalari turadi. Respublika hududida turistik obektlar yetarlicha. Shularni hisobga olgan holda bir qator qonun va farmonlar ishlab chiqilmoqda. Jumladan O'zbekiston Respublikasining turizm to'g'risidagi qonuni 22 moddadan iborat bo'lib, uning birinchi moddasida quyidagicha belgilab berilgan.

«Ushbu Qonunning maqsadi turizm sohasidagi munosabatlarni huquqiy jihatdan tartibga solish, turistik xizmatlar bozorini rivojlantirish, shuningdek turistlar va turistik faoliyat sub'ektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilishdan iborat».

Yuqorida keltirilgan birinchi moddada keltirilganidek turistlar va ularga xizmat ko'rsatuvchi korxona faoliyati har tomonlama himoyalanganligini ko'rishimiz mumkin. Yurtimizda olib borilayotgan chora tadbirlar, xizmat ko'rsatuvchi korxonalar faoliyatlari barchasi turizmni rivojlantirishga qaratilgan. Shu jumladan bu faoliyat bilan shug'ullanuvchi qo'mita ham tashkil qilingan bo'lib, u O'zbekiston Respublikasi turizmni rivojlantirish qomitasi hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori (PQ 3510-son 06.02.2018)

«O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «O'zbekiston Respublikasi turizm salohiyatini rivojlantirish uchun qulay sharoitlar yaratish bo'yicha qo'shimcha tashkiliy chora-tadbirlar to'g'risida»gi 2018 yil 3 fevraldagi PF-5326-son Farmonini ijro etish, shuningdek O'zbekiston Respublikasi Turizmni rivojlantirish davlat qo'mitasi faoliyatining samaradorligini oshirish, turizm sohasiga xorijiy investitsiyalarni jalb qilishda uning rolini kuchaytirish, kirish va ichki turizmni rivojlantirish maqsadida» bir qancha yumushlar belgilab qo'yildi hamda uning ijrosi «Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish O'zbekiston Respublikasining Bosh vaziri A.N. Aripov, O'zbekiston Respublikasi Bosh vazirining o'rinbosari S.R. Xolmuradov hamda O'zbekiston Respublikasi Turizmni rivojlantirish davlat qo'mitasining raisi A.A. Abduxakimov zimmasiga yuklansin.» deb belgilab qo'yildi.

Bu borada yana bir farmon bu buyuk ipak yo'li rekonstruksiya qilish borasida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni «buyuk ipak yo'lini qayta tiklashda O'zbekiston Respublikasining ishtirokini avj oldirish va respublikada xalqaro turizmni rivojlantirish» borasidagi chora-tadbirlar to'g'risida.

«G'oyat muhim xalqaro turizm yo'nalishi — Buyuk Ipak yo'lini qayta tiklash, xorijiy sayyohlarni keng jalb etish, shuningdek mamlakatda zamonaviy turizm sanoatini vujudga keltirish maqsadida» deb belgilab qo'yilgan. Bu qonunda bir qator ishlar belgilab qo'yilgan bo'lib, jumladan buyuk ipak yo'lidagi shaxarlarda xalqaro turizm bo'yicha maxsus ochiq mintaqalar tashkil qilish, mazkur shaxarlar aeroportlari vat emir yo'l vokzallarida xorijiy sayyohlar uchun bojxona rasm rusmlarining xalqaro meyorlariga mos soddalashtirilgan tartibi, shuningdek tranzist sayyohlar uchun maxsus bojxona zonalari joriy qilinishi borasida, yagona vizani joriy qilish kabi ko'plab ishlar belgilab qo'yilgan.

1.2. O'zbekiston Respublikasida turizm sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar

O'zbekiston Respublikasi hozirgi rivojlanish yo'lidan borar ekan har tomonlama islohatlarni amalga oshirib kelmoqda. Shunday bo'lsada turizm sohasida ham hali amalga oshirilmagan bir qator ishlar mavjudligi hech kimga sir emas. Turizm sohasida mamlakatimiz dunyo bo'yicha juda ham pastki o'rinlarni egallagani odamni tashvishga soladi. Mamlakatimiz tarixi jihatdan juda boy xalq hisoblanadi. Qadimiy yodgorliklar, me'moriy obidalarining yurtimizda minglab kuzatishimiz mumkin. Mana ajdodlar merosini saqlash, unga hurmat ko'rsatish hamda dunyo miqyosida o'rniga ega bo'lishi uchun harakat qilishimiz zarur. Nahotki shuncha tarixiy va boy madaniy meroslarimiz bo'la turib, ularni dunyoga tanita olmasak? Buning uchun bizda arzigulik va maqtagulik boy tarixiy merosimiz yetarli. Yurtimiz ravnaqi yo'lida amalga oshirilayotgan barcha islohotlar negizida Vatan, xalq manfaati turibdi. Barcha sohalarda islohotlar amalga oshirilyapti. Bunday ijobiy o'zgarishlar, rivojlanishni yangi bosqichga ko'tarish uchun, hammamiz o'z vazifamizni chin yurakdan ado etishimiz, fidoyi bo'lishimiz lozim. Davlat rahbarining yurtimizda barcha sohalar qatorida turizmga ham katta e'tibor qaratishi bu sohada ko'zga tashlanib kelinayotgan kamchilik va muammolarni bartaraf etish choralarini jadallik bilan amalga oshirilishida dasturi amal bo'lib xizmat qilishi shubhasiz. O'zbekiston yirik turizm salohiyatiga ega mamlakatlar qatorida o'z o'rnini va ahamiyatiga ega ekan, demak biz mavjud imkoniyatlardan maksimal darajada foydalanishimiz kerak. Bu borada yurtimizda qilinayotgan bir qator islohatlar bilan tanishib o'tamiz. Jumladan tarixiy maskanlariga e'tibor qaratilayotganlarini Muborak Ramazon oyining ilk juma kuni benazir avliyo Suzuk ota hazratlarining Toshkent shahrida bunyod etilgan yodgorlik majmualarining ochilishi misolida ko'rishimiz mumkin.

Jahondagi aksariyat mamlakatlar tajribasidan ma'lumki, turizm targ'ibotiga muntazam ravishda jiddiy e'tibor qaratiladi va tegishli resurslar ajratiladi. Tan olish kerak, bizda turizm haqida axborot tarqatish masalasida bajarilgan ishlardan ko'ra, navbatini kutayotganlari ancha ko'p. Shunisi aniqki, xalqaro turizm yarmarkalari, konferentsiyalar, seminarlardagi milliy kompaniyalarimizning faolligi, maqsadli auditoriya bilan bevosita ishlashi, dunyodagi yetakchi multi-media platformalar, gazeta-jurnallar va telekanallarda berilayotgan materiallarni yetarli deyishimizga hali erta.

To'g'ri, xorijlik sayyohlar uchun respublikamiz hududiga kirish vizasi yengillashtirildi. Turistik xizmatlar sifat jihatdan sezilarli darajada yaxshilanmoqda. Hududlardagi turizm infrastrukturasi rivojlantirish maqsadida davlat tomonidan moliyaviy ko'mak berilmoqda. Pirovardida sayyohlar sonining ko'payishiga erishila boshlandi.

Ichki turizm ham bir qadar ijobiy o'zgarishlar kuzatilmoqda. Bayramlar sabab mamlakatimizda e'lon qilinayotgan — "Oltin hafta" (Golden Week) dam olish kunlarida respublika bo'ylab oilaviy sayohatga borish xalqimiz orasida yaxshi an'anaga aylanmoqda. Misol uchun, o'tgan Navro'z bayrami kunlari markaziy vokzal va aeroportlarimizdagi misli ko'rilmagan tirbandlikni ko'rib, to'g'risi, xursand bo'ldim. Toshkent shahriga kelayotgan va aksincha poytaxtdan viloyatlarga chiqib ketayotgan hamyurtlarimizning son-sanog'i yo'q edi. Ularning orasida nevaralari bilan poezdga o'tirib, bir ming bir yuz kilometr olisdagi Xivaga otlangan oqsoqollar ham bor edi.

Bayram kunlari shaharlararo chiptalarning arzonlashishi, muzey va teatrlarning tekin xizmat ko'rsatishi, ochiq maydonlardagi kontsert tomoshalari, yangi mehmonxonalar, restoran va oshxonalarning maxsus bayramona chegirmalari kimni qiziqitirmaydi deysiz. Aslida mamlakat nufuzining o'lchov mezonlari qatorida turizm alohida o'rin tutadi. Bunda xususan, xorijliklar va mahalliy aholining turli joylarni bevosita borib ko'rishga qiziqishi, u yerlardagi shart-sharoit, tabiatining go'zalligi yoki inson qo'li bilan yaratilgan diqqatga sazovor joylarning mavjudligi e'tiborga olinadi.

Rasmiy ma'lumotlarga ko'ra, 2018 yilda O'zbekistonga 5 milliondan ziyod xorijiy sayyoh tashrif buyurganki, bu 2017 yildagiga nisbatan ikki barobar ko'pdir. Ularga 795 turistik kompaniya xizmat ko'rsatgan. Chet ellik sayyohlarning talab-istaklari asosida turistik xizmatlarning turlarini ko'paytirish masalasiga alohida e'tibor qaratilmoqda. Mahalliy aholining o'ziga xos milliy uslubdagi shinam xonadonlarida mehmon bo'lishdan to'g'ri eksklyuziv va lyuks sayohatlar, sarguzasht turlar, ya'ni tog'lar, dashtu dalalarga borish, tuya-otlarda yurish, chang'ida uchish, o'tovlarda tunash, eko va sog'lomlashtirish turizmi, betakror tabiatdan zavq olish, so'lim pansionatlarda sog'liqni mustahkamlash, shuningdek, yaxshi an'anaga aylanayotgan ziyorat turizmi va boshqalar

shular jumlasidandir. Muhimi, kelayotgan sayyohlar uchun yangidan-yangi qulayliklar yaratilmoqda. Jumladan, mamlakatimizga viza olish jarayoni bir muncha yengillashtirildi. O‘zbekistonda turizmni tezkor rivojlantirishga doir Prezident farmoni qabul qilindi. Ushbu hujjat bilan mamlakatimizda 2019-2025 yillarda Turizmni rivojlantirish kontseptsiyasi va chora-tadbirlar rejasi tasdiqlandi.

Bundan tashqari, farmonga ko‘ra, 2019 yilning 1 fevralidan 45 davlat fuqarolari uchun 30 kunlik muddatga vizasiz rejim joriy qilindi. Bu ro‘yxat tobora kengaytirilmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «O‘zbekiston Respublikasi turizm salohiyatini rivojlantirish uchun qulay sharoitlar yaratish bo‘yicha qo‘shimcha tashkiliy chora-tadbirlar to‘g‘risida»gi 2018 yil 3 fevral kuni e‘lon qilingan farmonida mamlakatimiz turizm salohiyatini targ‘ib qilish masalasi alohida vazifa sifatida belgilangan.

Mazkur hujjatda turizmni targ‘ibot qilish bilan bog‘liq yana bir muhim masalaga e‘tibor qaratilgan. Xususan, O‘zbekiston Milliy teleradiokompaniyasining «Dunyo bo‘ylab» telekanali O‘zbekiston Respublikasi Turizmni rivojlantirish davlat qo‘mitasining ichki turizm, dam olishning faol turlari va sport turizmini rivojlantirish, madaniy meros ob‘ektlari va tabiiy boyliklar, shu jumladan, muhofaza etiladigan tabiiy hududlarni saqlash va ulardan foydalanish bo‘yicha o‘tkaziladigan tadbirlarni yoritish masalalari bo‘yicha bosh axborot hamkori sifatida belgilandi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi «O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida»gi Farmoni hamda yuqorida tahlil qilingan sohaga tegishli me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilab berilgan vazifalarni amalga oshirishda ushbu yo‘nalishda olib borilayotgan yangi tadqiqotlar muhim o‘rin tutadi. Harakatlar strategiyasida nazarda tutilgan mamlakatimizning xalqaro nufuzini mustahkamlash, shuningdek, jahon media makonini respublikamiz haqidagi xolis ma’lumotlar bilan ta’minlash masalasiga alohida e‘tibor qaratilganligi muhim ahamiyat kasb etadi. Mustaqillik yillarida O‘zbekistonning mintaqaviy imiji geografiyasi kengaydi. Chunonchi, Toshkent islom madaniyati poytaxti, Ellikqal’a ko‘hna madaniyat o‘chog‘i, Surxondaryo (Termiz) tsivilizatsiya beshigi, Asaka avtosanoat markazi,

Navoiy zamonaviy xalqaro havo darvozasi sifatida xorijiy ommaviy axborot vositalarida ko‘p tilga olinmoqda.

XX asrning 50-yillari o‘rtalarida D.Ogilvi Lotin Amerikasida joylashgan Puerto-Rikodek mo‘‘jaz bir davlatning tashqi nufuzi masalasini tarixda birinchi marta brend sifatida ko‘tarib chiqqan. Mutaxassisning bundan ko‘zlagan asosiy maqsadi amerikaliklarning ushbu mamlakatga bo‘lgan salbiy munosabatini o‘zgartirish va mamlakatga sayyohlarni ko‘proq jalb etishdan iborat edi. Olib borilgan media targ‘ibot ishlari tufayli Puerto-Riko tashqi dunyo tasavvurida notinch, kambag‘al bir davlatdan tarixan boy va madaniyati o‘ziga xos Renessans davrini boshdan kechirayotgan davlatga aylangan. Shu tariqa bu kichik, ko‘zga ko‘rinmas o‘lkaga AQShdan yuzlab kompaniyalar va millionlab turistlarning kelishiga erishilgan. Eng muhimi, Puerto-Riko to‘rt yuz yillik qashshoqlikdan qutilgan. Britaniyalik Saymon Anxolt — «mamlakatlar brendingi» sohasida dunyoda tanilgan yirik mutaxassislardan. 2012 yilda AQShning “Global Market Insight” kompaniyasi bilan hamkorlikda o‘tkazgan tadqiqoti natijasi o‘laroq 25 mamlakat brendi reytinglari nashr qilindi. Tadqiqotchi o‘nta davlat fuqarolari orasida so‘rov o‘tkazib, bir necha mezonlar bo‘yicha boshqa davlatlarning brendiga baho berish g‘oyasini ilgari surgan. Unga ko‘ra, milliy brendni tashkil etishning 80 foizi muvofiqlashtirish ishlari bilan bog‘liq, 15 foizi kommunikatsiya va qolgan 5 foizi taassurotdan iboratdir.

Saymon Anxolt «Nations Brand Index», ya‘ni mamlakat imijining mezonlari qatorida turizm masalasiga alohida e‘tibor qaratadi. Qayd etish kerakki, mamlakat imijiga baho berilganda turizmdan tashqari yana beshta jihat inobatga olinadi. Bular — mamlakat aholisi, o‘ziga xos madaniy merosi, hukumatning ochiqligi, uning xalq oldidagi nufuzi, mamlakatning xorijga sotayotgan mahsulotlari sifati, sarmoyaviy va imigratsion sharoitlar. Har qanday brend shiori odamlarning xotirasida darhol muhrlanib qoladigan, unutilmas ta’sir kuchiga ega, yorqin va betakror bo‘lgandagina maqsadga erishishga xizmat qiladi. Nazarimizda, ayrim xaritalarda keltirilgan O‘zbekistonning turistik shiori — «Tabiiy betakror!» (ing. Naturally irresistible) kutilgan natijani berishi qiyin. Kuzatishlar shuni ko‘rsatadiki, so‘nggi davrda xorijiy

ommaviy axborot vositalarida O‘zbekiston bilan bog‘liq chiqishlarning ko‘pchiligini turizm mavzusidagi maqolalar tashkil etadi. Masalan, AQShda nashr qilinadigin «The Diplomat» jurnalida respublikamizga dunyodagi 45 dan ziyod mamlakat fuqarolari uchun turistik viza bekor qilingani haqida maqola e‘lon qilindi. “Bu Prezident Shavkat Mirziyoevning islohotlar dasturidan o‘rin olgan viza liberalizatsiyasining amalga oshirilayotganligi bilan bog‘liq”, deydi amerikalik jurnalist Katerin Putz.

«Rossiyalik turistlar O‘zbekistonga ko‘proq borishmoqda» deb nomlangan maqola «RIA Novosti» axborot agentligi saytida e‘lon qilindi. Unda qayd etilishicha, 2018 yil davomida ushbu mamlakatdan respublikamizga kelgan turistlar soni 270 mingdan oshib ketgan. Bu ko‘rsatkich sayyohlar oqimining oldingi davrga nisbatan uch barobar ortganligini tasdiqlaydi. Maqolada Toshkentdagi Rossiya elchixonasining konsullik bo‘limi rahbari Ivan Fetisovning O‘zbekiston aeroportlaridagi bojxona xizmatlari bir muncha yaxshilangani haqidagi fikrlari keltiriladi. Ayni davrda mamlakatimiz turistik salohiyatini yanada samarali targ‘ib qilish, mavjud imkoniyatlardan unumli foydalanishga qaratilgan chora-tadbirlar sohani sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarishga xizmat qilmoqda. Bunda Prezidentning 2016 yil 2 dekabrda «O‘zbekiston Respublikasining turizm sohasini jadal rivojlantirishni ta‘minlash chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi farmoni hamda 2017-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasida belgilangan vazifalar muhim dasturulamal bo‘lmoqda. O‘zbekiston turizm sanoatini rivojlantirish, iqtisodiyotning tez o‘shishini ta‘minlashda uning rolini oshirish, yangi ish o‘rinlari yaratish, dunyo bozorida milliy turistik mahsulot salohiyatini yuksaltirishga xizmat qiluvchi barcha sharoitlar yaratilmoqda. Mazkur faoliyat milliy turizm sohasini axborot bilan ta‘minlash, turistik operatorlar uchun zamonaviy axborot texnologiyalari yechimlari va kompyuter dasturlarini ishlab chiqish, axborot bozori sub’ektlariga uyg‘unlashgan holda ishlash, xalqaro miqyosda mamlakatimiz nufuzini oshirish bo‘yicha ommaviy axborot vositalarida keng targ‘ibot ishlarini olib borishni taqozo etadi. O‘zbekistonning turistik jozibadorligi oshishiga xizmat qiluvchi dolzarb axborot resurslarini, jumladan yurtimizning noyob tarixi, o‘tgan buyuk allomalari va olimlari, diqqatga sazovor joylari, milliy taomlari, an‘analari haqida

hujjatli filmlar va teleko'rsatuvlar yaratish va tarqatish zarur. Kelayotgan har bir sayyoh diqqatga sazovor joylarni tomosha qilishdan tashqari, to'laqonli turistik mahsulotlardan bahramand bo'lishga ehtiyoj sezadi. Buning uchun hududlar imijini shakllantirish bo'yicha ham alohida dasturlarni joriy etish zarur. Umuman olganda, jahon media makonida O'zbekiston imijini shakllantirish va uni himoya qilishning yagona davlat strategiyasini (dasturini) ishlab chiqishga ehtiyoj bor. Mamlakatning ijobiy imiji bo'yicha milliy strategiyani amalga oshiruvchi tashkilotni aniqlash, belgilash kerak bo'ladi. Milliy brending bo'yicha Prezident kengashi (Presidential Council on National Branding) tashkil etish lozim.

Bu kabi kengash Koreya Respublikasida faoliyat olib bormoqda. Fikrimizcha, ushbu tashkilot bizning respublikamiz sharoitiga moslashtirilgan holda yaratilsa, kutilgan samaraga erishish mumkin. Xorijliklarga mamlakatimizning qadimiy tarixi, boy madaniyati va zamonaviy ijtimoiy hayotini chuqurroq tushuntirish orqali yurtimizga nisbatan ishonchni shakllantirish masalasi doim dolzarb bo'lib qolaveradi.

Xabarga ko'ra, 2018 yilning 8 oyi davomida mamlakatimizga tashrif buyurgan xorijiy turistlar soni 3,4 mln. nafardan oshdi. Sayyohlarga xizmat ko'rsatuvchi mehmonxonalar soni 2018 yil 1 sentyabr holatiga 854 taga, ulardagi xonalar soni 19 559 taga yetdi. Ushbu ko'rsatkich 2017 yil yakuni bo'yicha mos ravishda 761 ta va 18464 tani tashkil etdi.

Afsuski, O'zbekiston bu sohada hali ancha orqada ekanligini ko'rish mumkin. Xususan, butun jahon turizm va sayohatlar bo'yicha kengashi (BTSK) tomonidan berilgan bahoga ko'ra, O'zbekiston sayyohlar tashrifi bo'yicha dunyo mamlakatlari orasida 150-o'rinni egallaydi. Yurtimiz jahon sayyohlik bozorida o'z o'rniga ega bo'lishiga qaramasdan, turistlarga qulay sharoit yaratish, servis xizmatini yaxshilash, sayyohlik obidalarining jozibadorligini oshirish va reklamani kuchaytirish darajasi juda past. Shuning uchun bu borada sezilarli o'sish haqida fikr yuritish ana shu omillarga bog'liq.



1-rasm.

Turizm bo'yicha raqobatbardosh mamlakatlar reytingida dunyodagi (madaniy zaxiralar, arzon infratuzilma, sayyohlik mahsulotlari narxi, xavfsizlik darajasi, xalqaro shaffoflik jihatidan) eng jozibador 140 ta sayyohlik maskani qayd etilgan bo'lib, ushbu ro'yxatda Qozog'iston 85-o'rin, Qirg'iziston 116-o'rin, Tojikiston 119-o'rinni egallagan, O'zbekiston esa Markaziy Osiyo davlatlari o'rtasida eng oxirgi o'rinda turibdi va bu reytingga kiritilmagan. Yaqinda rasmiy saytlardan birida 2018 yilning birinchi yarmida yurtimizga 2 million 200 ming nafar sayyoh tashrif buyurgani, bu ko'rsatkich 2017 yilga qaraganda 23 foizga oshgani haqidagi ma'lumotlarga ega bo'ldik.

Mamlakatimizda turizmni rivojlantirish borasida keng ko'lamli ishlar amalga oshirilyapti. Sayyohlar oqimini yanada oshirish, ularni ohanrabodek jalb qilish uchun nima qilishimiz kerak?

O'zbekiston katta tarixiy-madaniy merosga 7300 dan ortiq qadimiy-me'moriy va arxeologik obidalarga ega. Ularning ko'pchiligi Samarqand, Buxoro, Xiva, Shahrisabz,

Termiz, Qo'qon va Toshkent shaharlarida joylashgan. Yurtimizdagi 200 dan ziyod tarixiy yodgorlik va obidalar YuNeSKOning madaniy merosi ro'yxatiga kiritilgan.

Nahotki shuncha tarixiy va boy madaniy meroslarimiz bo'la turib, ularni dunyoga tanita olmasak? Buning uchun bizda arzigulik va maqtagulik boy tarixiy merosimiz yetarli. Birgina Fransiyaning Parij shahriga yiliga 15 million sayyoh tashrif buyurar ekan. Biz esa har yili sayyohlar sonini sanashdan, o'tgan yildagidan biroz ko'paygan bo'lsa, uni baralla ovoza qilishdan nariga o'tmayapmiz. Nahotki yirik bir sayyohlik salohiyatiga ega davlat bo'la turib, bitta shaharchalik natijaga erisha olmasak?

Raqamlarda mamlakatimizga 2 million 200 ming nafar sayyoh tashrif buyurgani qayd etilgan. Agar mamlakatimizda asosiy sayyohlik mavsumi mart oyining o'rtalarida boshlansa va dastlabki mavsum yakuni iyun oyi so'ngiga qadar bo'lsa, shu davr mobaynida shuncha sayyoh kelib ketishini tasavvur qilish qiyin.

Qolaversa, bizda mehmonxonalar yetarli emas, bori ham Yevropa mamlakatlarining mehmonxonalari narxi bilan deyarli teng va har yili narx sezilarli darajada o'sib bormoqda. Bu borada yana Parijga «murojaat» qiladigan bo'lsak, u yerda shahar va uning atrofidagi hududlardagi mehmonxonalar soni 4.260 tani tashkil etar ekan. Bizda esa bu ko'rsatkich respublika miqyosida 4 yarim barobarga past, ya'ni, yurtimiz bo'yicha atigi 750 ta mehmonxona mavjud.

Ma'lumotlarga ko'ra, ayni paytda turizmning mamlakat yalpi ichki mahsulotidagi ulushi 2 foizni tashkil etadi. Bu judayam past ko'rsatkich. Turizm faoliyatini amalga oshirgan firma va tashkilotlarning soni esa 433 tadan iborat.

Turizm davlat rahbari e'tiborida 2017 yil 22 dekabr kuni O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev parlamentga Murojaatida barcha sohalar qatorida turizm sanoati borasida quyidagi fikrlarni bildirdi:

«Hozirgi kunda milliy iqtisodiyotga yuqori daromad keltiradigan istiqbolli tarmoqlardan biri – bu turizmdir. O'zbekiston turizm sohasida dunyo bo'yicha ulkan salohiyatga ega bo'lgan davlat hisoblanadi. Yurtimizda 7300 dan ortiq madaniy meros obektlari mavjud va ularning qariyb 200 tasi YuNeSKO ro'yxatiga kiritilgan.

Shu bilan birga, mamlakatimizning betakror tabiati, go'zal dam olish maskanlari imkoniyatlaridan foydalanib, yangi turistik yo'nalishlar ochish mumkin. Bu sohaga

jahon brendlarini faol jalb etgan holda, biz ziyorat turizmi, ekologik, ma'rifiy, etnografik, gastronomik turizm va bu sohaning boshqa tarmoqlarini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratishimiz zarur. Bu borada davlat-xususiy sheriklik munosabatlarini qo'llash sohani taraqqiy ettirishda keng imkoniyatlar ochishini hisobga olishimiz lozim.

Samarqand, Buxoro, Toshkent shaharlaridagi muqaddas qadamjolar va yodgorliklarni ziyorat qilish dasturini rivojlantirish va jadallashtirish zarur. Ichki turizm sohasidagi katta imkoniyatlarni ham to'liq ishga solish lozim».

Shuningdek, davlatimiz rahbarining 2016 yil 2 dekabrda «O'zbekiston Respublikasining turizm sohasini jadal rivojlantirishni ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida»gi Farmoni sohada uchrayotgan xato va kamchiliklarni bartaraf etib, uni izchil rivojlantirishga qaratilgani bilan ahamiyatlidir.



2-rasm

Prezidentimiz mamlakatimizni 2016 yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning asosiy yakunlari va 2017 yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining kengaytirilgan majlisida turizm

haqida so'z yuritar ekan, bunday serdaromad soha rivoji e'tibordan chetda qolib kelayotgani, uning O'zbekiston iqtisodiyoti taraqqiyotiga qo'shadigan hissasini oshirish, tarixiy va madaniy qadriyatlarimizni targ'ib qilish, shuningdek, valyuta zaxiralarini to'ldirish bo'yicha aniq chora-tadbirlar ko'rilishi zarurligini alohida ta'kidladi. Jumladan turizmni rivojlantirish chora tadbirlari to'g'risida prezidentning quyidagi qaror va farmonlarini keltirib o'tamiz.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018 yil 7 avgustdagi "Oilaviy mehmon uylari faoliyatini tashkil etish to'g'risida"gi 631-sonli qarori ijrosi doirasida Turizmni rivojlantirish davlat qo'mitasi tomonidan joriy yilning 1-13 may kunlari "Oilaviy mehmon uylari yagona reestri"ga 48 ta Oilaviy mehmon uylari kiritilib, umumiy hisobda Oilaviy mehmon uylari soni 297 taga yetib, bugungi kunda ulardagi joylar soni 2 645 tani tashkil etadi. Shuningdek, ushbu oilaviy mehmon uylarida 490 ta qo'shimcha ishchi o'rni yaratildi.

Ma'lumot o'rnida Aprel-may oylari davomida, tashkil etilgan oilaviy mehmon uylari 4547 nafar mahalliy va 7844 nafar xorijiy, umumiy hisobda 12 391 nafar sayyohni qabul qilgan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «O'zbekiston Respublikasi turizm salohiyatini rivojlantirish uchun qulay sharoitlar yaratish bo'yicha qo'shimcha tashkiliy chora-tadbirlar to'g'risida»gi 2018 yil 3 fevraldagi PF-5326-son Farmonini ijro etish, shuningdek O'zbekiston Respublikasi Turizmni rivojlantirish davlat qo'mitasi faoliyatining samaradorligini oshirish, turizm sohasiga xorijiy investitsiyalarni jalb qilishda uning rolini kuchaytirish, kirish va ichki turizmni rivojlantirish maqsadida:

2017 yil 26 may kuni muhtaram Prezidentimiz azim poytaxtimizning Shayxontohur tumanida joylashgan "Suzuk ota" majmuasida bo'lib, maqbara va masjidni qayta ta'mirlash, atrofini obodonlashtirish bo'yicha tavsiyalar bergan edilar. O'sha yilning iyun oyidayoq qurilish ishlari boshlanib ketdi.



3-rasm. Suzuk ota majmuasi.

Oradan sal kam ikki yil o'tib, "Suzuk ota" majmuasida ulkan bunyodkorlik ishlari nihoyasiga yetganining guvohi bo'ldik. Ushbu majmuada muzey, hunarmandlar markazi va kutubxona barpo etilgani tashrif buyuruvchilar uchun juda ham foydali bo'ldi.

Yana bir misol tariqasida Xitoyning Pekin shahrida vatandoshlarimiz tomonidan O'zbekistonning turizm salohiyati targ'ib etilganligini aytishimi z mumkin. O'zbekistonning Xitoydagi elchixonasi, Turizmni rivojlantirish davlat qo'mitasi hamda bir guruh faol vatandoshlarimiz hamkorligida joriy yilning 10 may kuni Pekin texnologiyalar institutida o'tkazilgan "Xalqaro madaniyat kuni" tadbiri doirasida O'zbekistonning turizm salohiyati targ'ib etildi. Tadbirda 3000 dan ortiq mahalliy aholi va Xitoyga tashrif buyurgan turistlar ishtirok etishdi.



4-rasm

Tadbirda milliy kuy-qo'shiqlarimiz va raqslarimiz namoyish etildi hamda milliy taomlarimiz tayyorlanib, ishtirokchilarga tortiq etildi. Tadbir davomida ishtirokchilarga Turizmni rivojlantirish davlat qo'mitasi tomonidan taqdim etilgan O'zbekistonning turizm salohiyatini aks ettiruvchi targ'ibot materiallari tarqatildi va ularga O'zbekiston haqida qiziqarli ma'lumotlar yetkazildi.

“Tadbir ishtirokchilariga O'zbekiston tarixi, madaniyati, san'ati, milliy taomlari, urf-odatlari va xalqimizning mehmondo'stligi haqida batafsil ma'lumot berdik. Qayd etish lozimki, Xitoyliklar orasida O'zbekistonga tashrif buyuruvchilar soni ko'payib bormoqda, bunga o'z hissamizni qo'shayotganimizdan hursandmiz” – Ravshan Turg'unov - talaba.

Turizm sohasida samarali mehnat qilayotgan Feruza Yuldasheva “Mehnat faxriysi” ko'krak nishoni bilan taqdirlandi

O'zbekiston Respublikasi Turizmni rivojlantirish davlat qo'mitasi majlislar zalida Prezidentimiz tomonidan ta'sis etilgan “Mehnat faxriysi” ko'krak nishoni bilan

taqdirlash marosimi bo'lib o'tdi. Mazkur mukofotga Qo'mitada uzoq yillardan buyon halol va samarali mehnat qilayotgan Feruza Yuldasheva munosib deb topildi.

Davlatimiz rahbarining 2016 yil 28 dekabrda "O'zbekiston faxriylarini ijtimoiy qo'llab-quvvatlash "Nuroni" jamg'armasi faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoniga muvofiq ta'sis etilgan "Mehnat faxriysi" ko'krak nishoni bilan mamlakatimizning iqtisodiyot, ishlab chiqarish, ilm-fan, madaniyat, ta'lim, sog'liqni saqlash, yurisprudensiya hamda boshqa sohalarida ko'p yillar davomida halol va samarali mehnat qilgan nafaqa yoshidagi yurtdoshlarimiz, shuningdek, ishlamaydigan, hayotini oilalar mustahkamligini saqlash, farzandlarimizni jamiyat oldida mas'uliyat, milliy hamda umuminsoniy qadriyatlarga, kattalarga va yosh avlod vakillariga hurmat, ona-Vatanga muhabbat, istiqlol g'oyalariga sadoqat ruhida tarbiyalash ishlariga bag'ishlab, jamiyatimizda hurmat qozongan onalar taqdirlanadi.

O'zbekiston-Indoneziya xalqlarini jipslashtiruvchi jihatlar ko'p. Buni mamlakatimizga kelayotgan sayyohlar oqimidan sezish qiyin emas. Ayniqsa, bundan biroz avval Toshkentdan Jakartaga ochilgan to'g'ridan-to'g'ri avia qatnovlar ikki mamlakat uchun tarixiy voqea bo'ldi. Shundan so'ng, Turizmni rivojlantirish davlat qo'mitasi tashabbusi bilan dastlabki qatnov bilan bir guruh sayyohlar yurtimizga taklif etildi. Ular orasida O'zbekiston uchun yaqin do'st bo'lishga ulgurgan Gen Halilintarlar oilasi vakillari ham bor. Ayni paytda ular Buxoroga tashrif buyurishdi. 20 kishidan iborat delegatsiya vakillari "Ark" qo'rg'oni, "Poyi kalon" ansambli, "Toqi zargaron", "Toqi telpakfurushon", "Toqi sarrafon" bozorlari, "Labi hovuz" ansambli hamda "Chor minor" madrasasi kabi mashhur qadamjolar va tarixiy maskanlarda tasvirga olish ishlarini tashkil etishdi.

- Bu mening Islom dini markazi va ko'hna Buxoroi Sharifga oilam bilan uyushtirgan ikkinchi safarim. Biz Andijonda o'z ijodiy ishlarimizni yakunlab, Buxoroda davom ettirishga qaror qildik. Sababi Muqaddas Ramazon oyida o'zbekistonliklar haqidagi yangi materialimiz uchun bu manzil nihoyatda asosli, deydi mashhur blogerlar oilasi boshlig'i.

Darhaqiqat, ayni paytda nafaqat Indoneziya, balki Ispaniya, Yaponiya, Singapur, Malayziya, Rossiya, Latviya va Turkiya kabi davlatlar bilan turizm sohasida hamkorlik

aloqalari mustahkamlanishi natijasida qadimiy shaharga tashrif buyuruvchi sayyohlar soni ortmoqda.

Jizzax viloyati turistik salohiyati yuqori viloyatlardan biri sifatida sayyohlikning noan'naviy turlari – ekoturizm, agroturizm, tibbiy turizm rivojlanayotgan hududlaridan biri hisoblanadi. Ushbu yo'nalishdagi turizm imkoniyatlarini oshirish, sayyohlarni keng jalb etish, sohada innovatsion g'oyalarni amalga oshirish hamda barcha turdagi zaruriy xizmatlarni ko'rsatish kabi muhim vazifalar soha faoliyatini rivojlantirishni taqozo etadi. Ayniqsa, sayyohlarning turizm borasidagi xabardorligini oshirishda axborot markazlarining alohida o'rni mavjud.

Zomin tumanida Turizm axborot markazining ochilish marosimi bo'lib o'tdi. Ochilish marosimida ishtirok etgan O'zbekiston Respublikasi Turizmni rivojlantirish davlat qo'mitasi Jizzax viloyati hududiy boshqarmasi, tuman hokimligi hamda boshqa mutasaddi tashkilotlar vakillari yangi markazda turistik obyektlar haqida to'liq ma'lumotlar bazasi yaratilgani, turli xil qo'llanma va bukletlar bilan ta'minlangani, uning to'laqonli faoliyat olib borishi uchun barcha sharoitlar mavjudligi haqida ma'lumot berishdi.

